

ERTA TURMUSH: SABABLARI, OQIBATLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI

Karimova Munisa

SamDCHTI katta o'qituvchisi

Shoymardonova Sevinch Shavkatovna

SamDCHTI Kechki fakulteti

2-bosqich 2324-guruh talabasi

sshoymardonova8@gmail.com

+998992182005

Annotatsiya. Ushbu maqolada erta turmushning sabablari, uning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik oqibatlari tahlil qilinadi. Erta turmush bilan bog'liq muammolarni kamaytirish uchun tavsiyalar keltirilib, bu mavzudagi statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Maqola muammoga qarshi kurashda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam berishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: Erta turmush, ijtimoiy muammo, ta'lim, gender tenglik, oilaviy mas'uliyat, psixologik oqibatlar, tavsiyalar.

Erta turmush bu yoshlarning yetarli darajada ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik tayyorgarliksiz nikohga kirishish holati. Odatda, bunday turmushlar qiz bolalarga nisbatan kengroq tarqalgan bo'lib, rivojlanayotgan davlatlarda katta muammo bo'lib qolmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, har yili 15 yoshga to'limagan 12 milliondan ortiq qiz bola erta nikoh quradi. [1]

Erta turmush yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kamaytiradi, ularni iqtisodiy jihatdan qaram qilib qo'yadi va sog'liq uchun xavflarni oshiradi.

Erta turmush qurishning bir qancha sabablari mavjud. Bular:

1.Ijtimoiy an'analar va madaniyat

Ko'plab jamiyatlarda erta turmushga ijobjiy qarash shakllangan bo'lib, bu odatda oila obro'sini saqlash yoki iqtisodiy sabablarga bog'liq. Masalan, Hindistonning qishloq hududlarida qiz bolaning yoshligida turmushga chiqishi oila sha'nini saqlash sifatida qaraladi. [2]

Bizning jamiyatimizda ham erta turmush asosan an'analarimiz bilan bog'liq. Bunda ota-onalarimiz, bobo-buvalarimiz hayotlik paytimda sening to'yingni ko'ray degan maqsadda yosh navnihol qizlarni erga berishadi. Bu esa mutlaqo noto'g'ri jarayon hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda jamiyatimizdagi ayrim insonlar "Tengi chiqsa tekin ber" degan maqolga amal qilishadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2. Ta'lim darajasining pastligi

Ta'lim yoshlarni turli ko'nikmalar va bilimlar bilan ta'minlaydi, bu esa ularga kelajakda o'z hayotini mustaqil boshqarish imkonini beradi. Ta'lim darajasining pastligi esa yoshlarni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qaram qiladi. Natijada, qizlarning erta turmushga chiqarilishi xavfi oshadi.

Masalan, UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, boshlang'ich ta'limni tugatgan qizlarning erta turmush qurish ehtimoli 30% ga, o'rta ta'limni tamomlaganlarda esa 60% ga kamayadi. [3]

Ta'lim olgan qizlarning erta turmushga chiqish ehtimoli ta'lim olmagan qizlarga qaraganda 40% kamroq. [4]

3. Iqtisodiy sabablar.

Kam ta'minlangan oilalarda erta turmush ko'pincha iqtisodiy yukni kamaytirishning bir usuli sifatida ko'rildi. Shu bilan birga, yoshlarni to'g'ri tarbiyalash va ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish bo'yicha tajribasizlik ham muhim omil hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlar

1. Juhon miqqosida har yili 18 yoshgacha bo'lgan qizlarning 21% erta turmush quradi. [5]

2. Markaziy Osiyoda esa bu ko'rsatkich o'rtacha 12% ni tashkil qiladi, bu boshqa mintaqalarga nisbatan nisbatan past bo'lsa-da, muammo dolzarb bo'lib qolmoqda.

Erta turmush qurish bir qator yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Misol uchun:

1. **Sog'liq muammolari:** Erta homiladorlik yosh qizlar uchun xavfli bo'lib, onalik o'limini oshiradi.

Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 20 yoshdan kichik onalardan tug'ilgan chaqaloqlarda perinatal (tug'ruq atrofidagi davr) o'lim xavfi katta. Bu yoshdagagi onalar orasida chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi 50% ga yuqori bo'lishi mumkin. [6]

2. **Psixologik ta'sirlar:** Yoshlar psixologik jihatdan turmush qurishga tayyor emasligi sababli stress, depressiya va boshqa psixologik muammolar kelib chiqadi.

3. **Ijtimoiy qaramlik:** Qizlar o'z kelajagini mustaqil ravishda qurish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar.

Bu muammoni hal qilish bo'yicha tavsiyalarimiz mavjud. Bular:

1. Ta'lim	imkoniyatlarini	oshirish
------------------	------------------------	-----------------

Yoshlarni, ayniqsa qizlarni, sifatli ta'lim bilan ta'minlash muammoni hal qilishning muhim yo'lidir. Bu ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga yordam beradi.

2. Huquqiy	choralarning	kuchaytirilishi
-------------------	---------------------	------------------------

Erta nikohni taqiqlovchi qonunlar joriy etilishi va ularning qat'iy amalga oshirilishi muhimdir. Bu borada jamiyatni xabardor qilish kampaniyalari o'tkazilishi lozim.

3. Ijtimoiy

ongni

oshirish

Jamiyatda erta turmushning zararli oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish uchun ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak erta turmush yoshlarning hayotini tubdan o'zgartirib, ularning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ta'limni rivojlantirish, huquqiy choralarining kuchaytirilishi va ijtimoiy ongni oshirish bo'yicha harakat qilish zarur. Hamma uchun teng imkoniyatlar yaratish kelajak avlodni baxtli va barqaror hayot bilan ta'minlashning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WHO (2023). Child Marriage Factsheet.
2. UNICEF (2021). State of the World's Children Report.
3. UNESCO (2021). The Role of Education in Preventing Child Marriage.
4. World Bank (2020). Education and Child Marriage: Reducing Risk through Learning.
5. UN Women (2022). Ending Child Marriage: Global Progress Report
6. World Health Organization (2023). Adolescent Pregnancy Factsheet